



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELI.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	115
Urinov Bobur Nasilloevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODEL VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	189
Yuldashova Yoqutoy	



KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	193
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI	199
Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT	210
Xolmurodova Durdona Otamurod qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Саттарова Зухра Илхомовна	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI	224
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	



KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI

Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
Ishlar boshqaruvchisi bo'limi o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznesning rivojlanishi va uning mintaqaviy investitsiya faolligiga ta'siri keng ko'lamlı statistik va ekonometrik metodlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda 2020–2025-yillar davomidagi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, viloyatlar kesimidagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi hamda kichik korxonalar doir ko'rsatkichlar qo'llanilgan. Panel ma'lumotlar modeli va korrelyatsion-regression tahlil orqali kichik biznes subyektlari soni bilan hududiy investitsiya faolligi o'rtasidagi munosabat o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar soni 1 foizga oshganda, hududda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'rtacha 0,62 foizga ko'payadi. Strategik dasturlar va hududiy rivojlanish chora-tadbirlari doirasida kichik biznesni rag'batlantirish va hududiy investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, hududiy investitsiya faolligi, mintaqaviy rivojlanish, asosiy kapital, panel ma'lumotlar, ekonometrik tahlil, O'zbekiston, tadbirkorlik muhiti, xususiy sektor.

Abstract. This article analyzes the development of small business in the regions of the Republic of Uzbekistan and its impact on regional investment activity using comprehensive statistical and econometric methods. The study uses data from the National Statistics Committee for 2020–2025, regional indicators of fixed capital investment, and indicators related to small enterprises. The relationship between the number of small business entities and regional investment activity is examined through a panel data model and correlation-regression analysis. The results show that a 1 percent increase in the number of small enterprises leads to an average 0.62 percent increase in fixed capital investment in the region. Within the framework of strategic programs and regional development measures, recommendations have been developed to stimulate small business and improve the regional investment environment.

Keywords: small business, regional investment activity, regional development, fixed capital, panel data, econometric analysis, Uzbekistan, business environment, private sector.

Аннотация. В данной статье на основе комплексных статистических и эконометрических методов проанализировано развитие малого бизнеса в регионах Республики Узбекистан и его влияние на региональную инвестиционную активность. В исследовании использованы данные Национального комитета по статистике за 2020–2025 годы, показатели объёма инвестиций в основной капитал в разрезе регионов, а также данные, связанные с деятельностью малых предприятий. С помощью модели панельных данных и корреляционно-регрессионного анализа изучена взаимосвязь между числом субъектов малого бизнеса и региональной инвестиционной активностью. Результаты показывают, что при увеличении числа малых предприятий на 1 процент объём инвестиций в основной капитал в регионе в среднем возрастает на 0,62 процента. В рамках стратегических программ и мер регионального развития разработаны рекомендации, направленные на стимулирование малого бизнеса и улучшение региональной инвестиционной среды.

Ключевые слова: малый бизнес, региональная инвестиционная активность, региональное развитие, основной капитал, панельные данные, эконометрический анализ, Узбекистан, предпринимательская среда, частный сектор.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida kichik biznesning hududiy rivojlanishdagi roli tobora ortib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kichik va o'rta korxonalar (KOK) nafaqat ish o'rnlari yaratuvchi kuch, balki investitsiya muhitini shakllantiruvchi, mahalliy talabni qo'llab-quvvatlovchi va texnologik innovatsiyalarni hududlarga tarqatuvchi asosiy omil sifatida tan olinmoqda. O'zbekistonda ham ushbu jarayon kuzatilmog'da.



Milliy statistika qo'mitasining 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 474,9 mingtani tashkil etib, shulardan 403,8 mingtasi – 85 foizdan ortig'i – kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi [4]. 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 7,7 foizga o'sib, joriy narxlarida 1 849 trln so'mga yetdi, asosiy kapitalga investitsiyalar esa 10,5 foizga o'sib, 591,1 trln so'mga yetdi [6].

Biroq hududiy kesmada investitsiya faolligida muhim nomutanosibliklar kuzatilmoqda: Toshkent shahri va yirik sanoat markazlarida investitsiyalar hajmi nisbatan yuqori bo'lsa, Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni nisbatan kam [18]. Aynan shu nomutanosiblikni bartaraf etishda kichik biznesning hududiy investitsiya faolligiga ta'sirini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyot nazariyasida kichik biznes bilan investitsiya faolligi o'rtasidagi munosabat bir necha yo'nalishda o'rganilgan. Schumpeter (1934) innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida ta'riflagan bo'lsa, Audretsch va Fritsch (1994) kichik korxonalar soni bilan mintaqaviy o'sish sur'ati o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani empirik isbotlagan [8]. Acs va Audretsch (2003) "bilim spillover" nazariyasini rivojlantirib, kichik korxonalarning yangi texnologiyalarni hududlarga tarqatishdagi rolini asoslab berdi [7].

O'rta Osiyo kontekstida Beck va Demirgüç-Kunt (2006) kichik biznesga moliyaviy kirish imkoniyatining yaxshilanishi investitsiya faolligini oshirishning zaruriy sharti ekanini ko'rsatdi [9]. Ushbu nazariy asoslar O'zbekiston sharoitida empirik tekshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor ulushini oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori bilan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi tasdiqlangan hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan [3]. 2025-yilda 42 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb etish, 81 ta yirik hamda 8 mingdan ortiq o'rta va kichik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgani qayd etilgan [23].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Birch (1987) AQSh mehnat bozori ma'lumotlarini tahlil qilib, yangi ish o'rinlarining asosiy manbai yirik korporatsiyalar emas, balki kichik korxonalar ekanini isbotladi [10]. Ushbu "Birch gipotezasi" keyinchalik ko'plab mamlakatlar uchun tasdiqlandi. Wennekers va Thurik (1999) tadbirkorlik faolligini milliy innovatsion tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uning iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanib borishini ko'rsatdi [15].

Eurostat (2023) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqida barcha korxonalarning 99,8 foizi KOK hisoblanib, ularning umumiy bandlikdagi ulushi 65 foizni tashkil etadi [11]. O'zbekiston uchun ham shu tendensiya xarakterli: 2024-yil yakuniga ko'ra, kichik biznes YalMda 54,3 foizlik ulushni egallagan, Surxondaryoda esa 77,8 foizga yetgan.

Tobin (1969) q-nazariyasida korxonaning bozor qiymati va almashtirish qiymatining nisbatini asosiy omil sifatida ko'rsatdi [14]. Keyingi tadqiqotlar investitsiya faolligiga ta'sir etuvchi omillar qatorini kengaytirdi: institutsional muhit, moliyaviy kirish imkoniyati, infratuzilma sifati, inson kapitali. World Bank (2024) Doing Business hisobotida O'zbekiston "Tadbirkorlik sharoitlari" bo'yicha sezilarli o'sish ko'rsatdi [16].

Krugman (1991) "yangi geografik iqtisodiyot" nazariyasida hududiy klasterlar va agglomeratsiya effektlarini tahlil qilib, kichik korxonalar konsentratsiyasi hududiy investitsiya jalb qilishni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatdi [12]. O'zbekiston kontekstida Nazarov va Xoliqov (2023) Toshkent va Samarqand viloyatlarida kichik biznes va investitsiya hajmi o'rtasida ijobiy korrelyatsiyani ($r = 0,74$) aniqladi [19].

Sobig'ov (2024) kichik biznes subyektlari soni va asosiy kapitalga investitsiyalar o'rtasidagi elastiklik koeffitsiyentini 0,58–0,71 oralig'ida aniqlagani ushbu tadqiqotning asosiy gipotezasini qo'llab-quvvatlaydi [22]. Rahimov va Yusupov (2024) kichik biznesning markazlashmagan investitsiyalarga ta'siri mavzusida $\beta = 0,61$ koeffitsiyentini aniqlagan [21].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2020–2025-yillar uchun hududiy kesimda taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlari ishlatilgan. Panel ma'lumotlar O'zbekistonning 14 mintaqaviy birligini (12 viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri) qamrab oladi. Quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan: asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (trln so'mda); kichik va mikrofirmalar soni (mingta); yaratilgan ish o'rinlari soni (ming kishi); kichik biznes ulushi YaIMda (foiz); to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mln dollar).

Tadqiqotda quyidagi ekonometrik va statistik usullardan foydalanilgan: panel ma'lumotlar modeli (Fixed Effects va Random Effects; Hausman testi belgilangan ta'sirlar modelining afzalligini tasdiqladi); korrelyatsion-regression tahlil (Pearson koeffitsienti); Granger sabab-oqibat testi; va deskriptiv statistika. Asosiy regression model quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$INV_{it} = \alpha + \beta_1 \cdot KB_{it} + \beta_2 \cdot ISH_{it} + \beta_3 \cdot YaIM_{it} + \beta_4 \cdot INF_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it}$$

bu yerda: INV_{it} – i-hududda t-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar; KB_{it} – kichik biznes subyektlari soni; ISH_{it} – yaratilgan ish o'rinlari; $YaIM_{it}$ – yalpi hududiy mahsulot; INF_{it} – infratuzilma indeksi; μ_i – hudud uchun doimiy ta'sir; ε_{it} – xatolik haddi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2025-yillar panel ma'lumotlari tahlili O'zbekiston hududlarida kichik biznes va investitsiya ko'rsatkichlari quyidagi dinamikani namoyon etishini ko'rsatdi (1-jadval).

Ko'rsatkich	O'rtacha	Std. og'ish	Min	Maks
Asosiy kapitalga inv. (trln so'm)	42,2	28,5	3,1	118,6
Kichik korxonalar soni (ming ta)	28,8	21,3	0,9	103,9
Ish o'rinlari (ming kishi)	145,3	98,7	12,4	521,2
YaIMdagi ulush (%)	54,3	9,8	38,2	77,8
To'g'ridan xorijiy inv. (mln \$)	312,4	289,7	18,5	1248,3

1-jadval. Asosiy ko'rsatkichlarning deskriptiv statistikasi (2020–2025, N = 84).

Pearson korrelyatsiya koeffitsienti tahlili kichik biznes ko'rsatkichlari va hududiy investitsiya hajmi o'rtasidagi munosabatni 2-jadvalda keltirilganidek belgilab berdi.

O'zgaruvchi	Korrelyatsiya koeff. (r)	p-qiyamat
Kichik korxonalar soni	0,782***	< 0,001
Ish o'rinlari soni	0,714***	< 0,001
YaIMdagi ulushi (%)	0,651***	0,003
Korxonalar o'sish sur'ati	0,589**	0,012

2-jadval. Korrelyatsiya tahlili natijalari. *** p < 0,001, ** p < 0,05.

Tahlil natijalari kichik korxonalar soni bilan hududiy investitsiya hajmi o'rtasida r = 0,782 darajasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatmoqda (p < 0,001), bu ikkala ko'rsatkich o'rtasidagi statistik jihatdan muhim aloqani tasdiqlaydi.

Belgilangan ta'sirlar (Fixed Effects) modeli qo'llanilgan panel regresyon tahlili natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

O'zgaruvchi	Koeffitsient (β)	Std. xato	t-stat.
Kichik korxonalar soni (log)	0,621***	0,089	6,97
Ish o'rinlari soni (log)	0,318**	0,112	2,84
YaIM (log)	0,445***	0,094	4,73
Infratuzilma indeksi	0,287**	0,098	2,93
Doimiy (constant)	1,245***	0,312	3,99
R² (Within) = 0,763; N = 84 (14 hudud × 6 yil)			

3-jadval. Fixed Effects panel regresyon natijalari. *** p < 0,001, ** p < 0,05.



Regressyon natijalari ko'rsatadiki, kichik korxonalar soni 1 foizga oshganda, boshqa omillar o'zgaras bo'lganda, hududdagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'rtacha 0,621 foizga ko'payadi ($\beta = 0,621$; $p < 0,001$). Ushbu koeffitsient statistik jihatdan yuqori darajada muhim bo'lib, model umumiy o'zgaruvchanlikning 76,3 foizini izohlaydi ($R^2 = 0,763$).

Hududiy kesimda Toshkent shahri (103,9 ming korxonalar) va Samarqand viloyati investitsiya faolligida peshqadamlik qilmoqda. Ayni paytda Qashqadaryo (149 ta), Xorazm (151 ta) va Qoraqalpog'istonda (161 ta) xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni nisbatan past [18]. Surxondaryo va Jizzaxda kichik biznesning YalMdagi ulushi yuqori bo'lsa-da, absolyut investitsiya hajmi past – bu munosabat nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham farq qilishini ko'rsatadi [5].

Granger sabab-oqibat testi kichik biznes rivojlanishi investitsiya o'sishidan oldin yuz berishini tasdiqladi ($F = 4,82$; $p = 0,029$). Ya'ni, kichik biznes faolligi birinchi navbatda shakllanib, keyingi davrda investitsiya oqimining o'sishiga zamin yaratmoqda. Aksincha yo'nalish (investitsiyalar → kichik biznes) ham mavjud, ammo statistik darajasi ancha past ($F = 2,11$; $p = 0,148$).

Tadqiqot natijalari xalqaro va mahalliy adabiyotlar bilan uyg'unlashadi. Olingan elastiklik koeffitsienti ($\beta = 0,621$) Sobig'ov aniqlagan 0,58–0,71 oralig'iga [22] hamda Rahimov va Yusupov natijasiga ($\beta = 0,61$) [21] mos kelishini ko'rsatadi, bu topilmaning ishonchligini mustahkamlaydi. Korrelyatsiya darajasi ($r = 0,782$) esa Nazarov va Xoliqov olgan natijadan ($r = 0,74$) [19] biroz yuqoriroq bo'lib, panel yondashuvning kengroq qamrovi bilan izohlanadi.

Granger testi natijasi nazariy jihatdan muhim: kichik biznesning investitsiyadan oldin shakllanishi Audretsch va Fritsch [8] hamda Acs va Audretsch [7] ilgari surgan “bilim spillover” va agglomeratsiya mexanizmlarini empirik tasdiqlaydi. Krugmanning yangi geografik iqtisodiyot nazariyasi [12] kontekstida Toshkent va Samarqandning peshqadamligi klaster effektining namoyoni sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot cheklovi sifatida 2020–2025-yillar davrining nisbatan qisqaligi va norasmiy investitsiyalarning to'liq qamrab olinmaganligini qayd etish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchi xulosa – statistik muhim ta'sir: kichik biznes subyektlari soni 1 foizga o'sganda, hududiy investitsiya hajmi o'rtacha 0,621 foizga ko'payadi ($p < 0,001$).

– Ikkinchi xulosa – hududiy nomutanosiblik: Toshkent shahri va yirik sanoat markazlarida investitsiyalar hajmi nisbatan yuqori bo'lsa, ayrim hududlarda bu ko'rsatkich pastroq darajada shakllangan.

– Uchinchi xulosa – sabab-oqibat: Granger testi kichik biznes rivojlanishi investitsiya oqimidan vaqt jihatidan oldin yuz berishini ko'rsatdi.

– To'rtinchi xulosa – infratuzilmaning o'rni: infratuzilma indeksi investitsiya hajmiga statistik muhim ta'sir ko'rsatmoqda ($\beta = 0,287$).

1. Hududiy kichik biznes klasterlarini rivojlantirish: har bir viloyatda ustuvor rivojlanish yo'nalishlari aniqlanib, maqsadli subsidiyalari va soliq imtiyozlari joriy etilishi tavsiya etiladi.

2. Moliyaviy kirish imkoniyatini yaxshilash: bank kreditlari va garov talablarini yumshatish, kichik biznes uchun maxsus kafolat fondlari tashkil etish.

3. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni faqat markazga emas, hududlarga yo'naltirish, kichik korxonalar uchun raqamli platformalarni joriy etish.

4. Maqsadli hududiy investitsiya dasturlari: rejalashtirilgan o'rta va kichik loyihalar geografik jihatdan teng taqsimlanishi, har bir tuman xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

5. Monitoring tizimini takomillashtirish: hududiy investitsiya va kichik biznes ko'rsatkichlari bog'liqligini sun'iy intellekt va “big data” asosida real vaqtda kuzatuvchi raqamli tizim joriy etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes hududlarda nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishga, balki investitsiya muhitini shakllantirish va innovatsion jarayonlarni faollashtirishga ham xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari strategik dasturlar va hududiy rivojlanish chora-tadbirlari doirasida kichik biznesni maqsadli qo'llab-quvvatlash mintaqaviy investitsiya faolligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son “O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi



- yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5801123>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>
 4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasi. – Toshkent, 2026. – URL: <https://stat.uz>
 5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2025. – URL: <https://stat.uz>
 6. Spot.uz. O'zbekiston YaIMi 2025-yilda 7,7 foizga o'sdi. – 2026-yil 23-yanvar. – URL: <https://www.spot.uz>
 7. Acs Z. J., Audretsch D. B. Handbook of Entrepreneurship Research: An Interdisciplinary Survey and Introduction. – Boston: Kluwer Academic Publishers, 2003.
 8. Audretsch D. B., Fritsch M. The geography of firm births in Germany // Regional Studies. – 1994. – Vol. 28, № 4. – P. 359–365.
 9. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, № 11. – P. 2931–2943.
 10. Birch D. L. Job Creation in America: How Our Smallest Companies Put the Most People to Work. – New York: Free Press, 1987.
 11. European Commission. SME Performance Review 2023. – Brussels: European Commission, 2023.
 12. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
 13. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
 14. Tobin J. A general equilibrium approach to monetary theory // Journal of Money, Credit and Banking. – 1969. – Vol. 1, № 1. – P. 15–29.
 15. Wennekers S., Thurik R. Linking entrepreneurship and economic growth // Small Business Economics. – 1999. – Vol. 13, № 1. – P. 27–56.
 16. World Bank Group. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. – Washington, D.C.: World Bank, 2020.
 17. Daryo.uz. O'zbekistonda korxonalarining 85 foizdan ortig'i kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. – 2025-yil 10-iyul. – URL: <https://daryo.uz>
 18. Investitsiya dasturi ijrosini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish // Modern Science and Research. – 2025. – URL: <https://inlibrary.uz>
 19. Nazarov B., Xoliqov A. Kichik biznes va hududiy investitsiya faolligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – № 4.
 20. O'zbekiston statistik axborotnomasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024. – № 1.
 21. Rahimov F., Yusupov D. Kichik biznesning markazlashmagan investitsiyalarga ta'siri // Iqtisodiyot va huquq dunyosi. – 2024. – № 3.
 22. Sobig'ov M. Kichik biznes subyektlari va asosiy kapitalga investitsiyalar o'rtasidagi elastiklik // O'zbekiston statistik axborotnomasi. – 2024. – № 2.
 23. O'ZA. 2024-yilda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari. – 2025-yil 10-fevral. – URL: <https://uza.uz>
 24. Uz24.uz. 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotidagi asosiy o'zgarishlar. – 2025-yil 23-yanvar. – URL: <https://uz24.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>